

Илйос НАИТОВ,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrası stajor o'qituvchisi

O'ZBEK TILI TARKIBIDAGI ARABIY LEKSIKA

Markaziy Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi markazlaridan sanaladi. Jahon madaniyatini yaratishda boshqa xalqlar bilan teng huquqda ishtirok etgan o'zbeklar bilan tojiklar Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan biri bo'lib, juda uzoq va tarixiy yo'lni bosib o'tdilar. O'zbek tili, lug'at tarkibiga arabiy so'zlar madrasa, diniy, ilmiy va badiiy kitoblar orqali kirib kelgan. Qolaversa, arabizimlarning tojikcha affiksalar morfemalar bilan birikib yangicha ma'no kasb etishi (masalan, zohir etmoq, darhaqiqat, darhol, baquvvat, g'amxo'r, mulkdor, nohaq singari), turkiy tildagi ko'makchi fe'llar bilan birikib, yangi so'zlar (masalan, zohir bo'lmoq, va'da bermoq, qaror qilmoq, mahv etmoq, tahammul etmoq kabi) paydo bo'lishi ham arabizimlarning o'zbek tili lug'at tarkibida mustahkam o'rin olishini ta'minlagan.

Arabcha so'zlarning bunday qaror topishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos bo'lgani sir emas. Alisher Navoiy arab tilining badiiy adabiyotdagi o'rniga e'tiborni qaratib "Muhokamat ul-lug'atayin"da "barchasidan arab tili fasohat o'yini bila mumtoz va balog'at tazmini bila mo'jiza tarozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qdur..." - deb yozadi (Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayin¹).

Arablar istelosidan so'ng, deyarli 150 yil davomida Markaziy Osiyoda arablar va ularning tili

hukmron edi². Ana shu davrlarda davlat ishlarida, ilm-fanda arab tili adabiy til sifatida qo'llangan. X-XI asrlarda yashagan ko'pchilik olimlar qaysi millatga tegishli bo'lishlaridan qat'iy nazar, falsafa, tarix, falakiyot, tibbiyot va boshqa fanlarga oid o'lmas asarlarini arab tilida yozadilar. Fikrimizning dalili sifatida Beruniyning Hindiston tarixi va madaniyatiga oid "Al-jamohir fil-javohir", Ibn Sinoning "Al-qonunu fit-tib", Al-Xorazmiyning "Al-jabr val-muqobala" va boshqa bir qancha asarlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimatad-daxr" tazkirasida Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda arab tilida ijod etganlar haqida ma'lumotlar bor. Biroq arablar mahalliy tillar rivojini, adabiy – madaniy jarayonining umumiy taraqqiyotini tabiiy to'xtata olmadilar. Arablar istelo qilgan juda katta maydonda yashaganlar o'z tillarini saqlab qolib, madaniyatini rivojlantira bordilar. Arab tilini keng tarqalishi o'zbekcha (turkiy) – arabcha, oz'bekcha – tojikcha ikki tillik davriga to'g'ri keladi va shu davrlarda turkiy tillarga ko'pgina arabiy so'zlarning kirib kelishiga va o'zlashishiga olib keldi. Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tiliga kirib kelishiga sabab bo'lgan omillar quyidagilardir:

1. Arab tili davlat tili, rasmiy va adabiy til edi. Davlatning barcha rasmiy, huquqiy hujjatlari arab tilida olib borilar, rasmiylashtirilar edi. Davlat, sud, savdo va xo'jalik ishlari arab tilida yuritilar edi. Arab tili o'sha davr ma'muriyati tili edi. Bu omil arab tilini mahalliy tilga ta'sirini kuchaytirdi.

¹ Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 2000. 16-jild.

² O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent 1991. 102-bet.

2. Arab tili rasmiy ravishda badiiy adabiyot tili edi. Mahalliy xalqdan chiqqan adiblar o'z asarlarini arab tilida yozdilar. Arab tilidagi badiiy adabiyotni mutolaa qilish turkiy tillarga arab tilining ta'siri kengayishiga sabab bo'lgan omillardan biridir.

3. Arab tili o'sha davrda O'rta Osiyo va Sharq xalqlari uchun fan va madaniyat tili edi. Arablar hukmronligi davrida barcha ilmiy asarlar arab tilida yozildi. Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mahalliy xalq olimlari o'z ilmiy asarlarini rasmiy tili bo'lgan arab tilida yozganlar.

4. Arab tili o'sha davr ta'lim tilidir. Maktab va madrasadalarda ta'lim ishlari arab tilida olib boriladi. Yozuv ishlari, savod chiqarish arab yozuvi tilida bajariladi. Bu hol mahalliy xalqning arab tilini egallashga, uni o'rganishga yo'l ochib berdi.

5. Arab tili humron xalq tili edi. Bu ayniqsa hukmron doiralarning arablashtirishda, arab tilida so'zlashga majbur qilinishda namoyon bo'ldi.

6. Arab tili din va shariat tili edi. Bu hol mahalliy xalqlar orasida uzoq davr yashadi. Arablar Islom dinini mahalliy aholiga majburiy va birdan – bir e'tiqod sifatida singdirildi. Chunki Islom dini fathchilar qo'lida mahalliy xalqning tobe qilishning muhim ideologik quroli edi. Islom dini singib, muqaddas e'tiqodga aylana brogan sari arab tili ham "Qur'on tili", Islom tili sifatida ilohiylasha bordi.

7. Turkiy tilklarga arabcha elementlarning kirishiga sabab bo'lgan omillardan yana biri arabcha –turkcha so'zlashuvlarning bevosita to'qnashuvi deb, bahslanishi mumkin. Arablarning ko'p sonli askarlari, shubhasiz mahalliy turkiy xalqlar bilan turli tarzda aloqada bo'ldi. Buning ustiga arablar piyoda qo'shin va maxsus turkum kishilarni bo'ysindirilgan va Islom dinini qabul qilgan kishilardan yig'dilar. Mana shunday asoslarda arab tili bilan turkiy tillar harbiy lagerlar, qarorgohlar va boshqa turar – joylarda ham to'qnashadi.

8. O'sha davrlarda arab tili lug'at tarkibining boyligi, ilmiy terminlari, poetik uslub leksikasining rang – barangligi bilan xarakterlanar edi. Xullas, arab tili adabiy til sifatida ancha ishlangan va silliqlangan edi. Bu xususiyatlar arab tilida ilmiy asarlar yozishni ancha osonlashtirar edi. Bu omil

o'zbek tiliga ko'pgina arabcha ilmiy terminlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

9. Arab tilining turkiy tillarga, jumladan o'zbek tiliga kuchli ta'siri ma'lum darajada o'sha davrda ko'pchilik xalqlar uchun umumiy til funksiyasini bajarganligi bilan ham bog'liqdir. Arab tili qarib 300 yil davomida O'rta Osiyo xalqlari uchun umumadabiy til vazifasini bajargan.

Yuqoridagi ijtimoiy – tarixiy sabablarga ko'ra o'zbek tiliga ma'lum miqdorda arabcha so'zlar kirgan. Ular o'zbek tilida turli semantik o'zgarishlarga yuz tutgan.

Turli tarixiy bosqichlarda xalqlar o'zaro aloqa va munosabatda bo'ladilar. Hech qanday xalq o'z taraqqiyoti yo'lida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, ayrim xo'jalik yuritishi mumkin bo'lmaganidek, biror-bir xalqning tili yakka holda tarraqiy qilishi mumkin emas. Shunga ko'ra, har bir tilning leksikasida etimologik jihatdan shu tilning o'ziniki bo'lgan so'zlardan tashqari, boshqa tillardan kirgan leksik elementlarning ham bo'lishi tabiiydir.

Arab tilidan kirgan so'zlarning taqdiri tarixan turlichadir. Ba'zilar o'zlashib, hozirgi o'zbek tilida boshqa tildan olinganligi ham sezilmaydi. Arab so'zlarining o'zbek tilidagi semantik evolyutsiyasi, ayniqsa xarakterlidir. Bunda, xalq ijodiy qayta ishlagan, xalqning so'zlashuv tiliga singib ketgan ko'pgina so'zlar o'z ma'nolarini kengaytirgan yoki o'zgartirgan. Zero, "har bir tilda mavjud bo'lgan so'z, o'simlik yoki hayvonlarning hujayralari singari o'zlariga xos hayot kechiradilar": ularning fonetikasi, orfografiyasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Shuningdek, so'zlarning ma'nosi ham o'zgarib turadi"³.

Har bir so'z ma'no e'tibori bilan dialektik harakatda bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan uning ma'nosi o'zgaradi. Ba'zi so'zlar o'z ma'nolarini toraytiradi, o'zgartiradi, yo'qotadilar. Ba'zilar so'z o'zlashtiruvchi til tarkibida o'z ma'no tuzilishlarini kengaytirishlari ham mumkin. So'zlarning ma'nolari shaklan emas, jamoatchilik dunyoqarashi talabi bilan belgilangan vazifalariga ko'ra vujudga keladi"⁴. Bu hodisa so'z ma'nolari

³ Лафарг Л. Язык и революция. –М. –Л.,1930. С.19.

⁴ Marr N.Ya. ko'rsatilgan asar. 59-bet.

tarraqiyotida ma'lum bir qonuniyat borligini, bu tarraqiyot eng oxiri, kishilik tarraqiyoti jamiyatiga, uning moddiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

O'zlashma so'zlar semantik tuzulishining kengayishi va torayishi ma'no sistemasining tarraqiyotiga aloqador hodisadir⁵.

So'z ma'no tuzulishining o'zgarishi, shuningdek, semantik tuzilishining tarraqiyoti lingvistik adabiyotlarda, odatda leksik ma'noning tarraqqiyoti yoki leksik ma'noning o'zgarishi, deb ta'riflanadi. Bu hodisa tilshunoslikda G. Paul tomonidan olg'a surilgan bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham ba'zi olimlar olib borgan ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Xususan, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyevlarning ba'zi so'z semantik tuzilishining tarraqqiyoti, o'zgarishi va shunga o'xshash hodisalar atroficha yoritib beriladi⁶. Biroq yuqorida ismlari zikr etib o'tilgan olimlarning ishlarida tilning o'z qatlamiga mansub leksik birliklarning semantik tarraqqiyoti va so'z semantik tuzulishidagi o'zgarishlar tahlil etilgan va tilda mavjud o'zlashma so'zlardagi ushbu hodisa ishning yo'nalishidan kelib chiqib ilmiy bayonini topmagan. Umuman, o'zlashma so'zlarning semantik tuzulishidagi o'zgarishlar hali lingvistik asarlarda "qo'l urulmagan" sohalaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina lingvistlarning ilmiy ishlarida bu sohani yoritishga harakat qilingan⁷. Faqat, ularning ishlarida til tarraqqiyotining u yoki bu bosqichlarida tilimizga kirib kelgan o'zlashma so'zlar xususida yoki ba'zi mutafakkir shoirlaning so'zlaridagi arabcha o'zlashma semantik xususiyatlari haqida to'xtab o'tilgan xolos. Shunga ko'ra, hozirgi zamon o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar haqidagi to'laqonli

ilmiy izlanishlar hali tilshunoslik oldida turgan vazifalardan hisoblanadi. Bizning bu yo'nalishdagi ushbu ishimiz yuqorida aytib o'tilgan vazifalar yo'lidagi ishlarning debochasidir.

Har qanday leksik birlik ma'no tomonidan muayyan semalar munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Leksema til birligi, umumlashma sanaladi. Leksema bevosita kuzatish bosqichida, nutq jarayonida leksik – semantik variantlar sifatida namoyon bo'ladi. Demak, leksema bevosita kuzatishda berilgan leksik-semantik variantlarning (LSV) umumlashmasidir. Nutq zanjirida leksema LSV sifatida o'z semasi bilan boshqa leksema LSVi bilan munosabatga kirishadi. Ushbu ishda o'zbek tilidagi arabiy leksemalarning mazmuniy tuzulishiga solishtirgan holda o'zlashtirish jarayonida qanday mazmuniy o'zgarishlarga uchragani aniqlanadi. Arabiy leksemalar o'zbek tiliga o'zlashtirilganda, faqat mazmun tomondan emas, balki, fonetik va grammatik tomondan ham ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Mazkur ishda, biz faqat ma'no tarkibidagi o'zgarishlarga to'xtalamiz.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa so'z uning nutqiy voqealanishi, nutqiy birligidir. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.⁸

Leksema va so'z orasidagi shakliy va bundan kelib chiqadigan mazmuniy farqlar xususida sistem tilshunoslikka oid manbalarda ayrim fikrlar bayon qilingan.⁹

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgilardan biri uning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishidir. Masalan: asbab, usta, insan, sinf, askar, alam g'am kabi arabiy so'zlar ham ongimizda tayyor holda turadi.

So'z, til sohiblari oldida leksemaning nutq egasi tomonidan nutqiy sharoitga mos ravishda voqelantirilishidir. Leksema so'z sifatida

⁵ Калинин А.В. Лексика русского языка. –М., 1972. – С.66. Смиринский И.А. Лексикология английского языка. –М., 1950. С.43. О'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent, 1981. –7-8 –betlar. Stepanova M.N., Черношова Н.Н. Лексикология современного немецкого языка. –М., 1962. – С. 155.

⁶ Калинин А.В. Лексика русского языка. –М., 1972. – С. 66. Смиринский И.А.. Лексикология английского языка. –М., 1950. – С.45.

⁷ Хамидов А. Лексико-семантические и лингвопоэтические исследования языка. Лисон-ут-тайр. Автореферат. –Тошкент, 1982. Рахматуллин М.К. Вопросы изучения синонимов в языке А. Navoiy 45-bet.

⁸ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyev G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abdusalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.; Universitet, 2006. B. 480.

⁹ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.; Universitet, 2006. –B.B qilinmaydi.

voqealantirilganda, o'zining bir qirrasinigina nutqiy jarayonga olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan kitob leksemasi ongimizda "varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli" yoki "yirik hajmli badiiy yoki ilmiy asarning qismi" kabi ikkita semasi bilan tayyor va barqaror holatga ega. So'zlovchi o'z nutqida kitob yoki shunga o'xshash boshqa so'zlarni badiiy jihatdan "to'yintirishi", matnda bevosita maqsad va yo'nalishdan kelib chiqib namoyon etishi mumkin. "Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning ma'lum qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z boshqa tomondan so'zlovchi tomonidan boyitiladi. Ya'ni, aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomondan "to'yintiriladi".¹⁰ Leksema so'z -shakl yohud yasama so'z sifatida yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllantirish uchun so'z-shakl qiyofasida kiritish (so'z-shakl sinonim atamalaridir, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'z-shaklga aylanmagan so'z yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama so'zlar hosil qilish so'zlovchining "so'z tayyorlash jarayoni"dir. "Ilk devon" dagi juda ko'p arabizmlar muayyan qolip asosida mazkur tilning o'zida paydo bo'lgan va shu holda o'zbek adabiy tiliga o'tib qolgan. Ayrim arabizmlar esa shariy nutq, jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosilalardir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ayrim yasama so'z (binobarin, bu fikr "Ilk devon" dagi yasama so'z-shakllarga ham tegishli, -M.T.) qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan leksemalashib, tayyor holga kelib qolgan.

Ma'lumki, leksema til jamiyat a'zolari ongida boshqa leksema bilan o'xshashlik qatori (paradigmalar) hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Deylik, arab tilidan o'zlashgan ayol leksemasi bir tomondan farzand, oila singari, ikkinchi tomondan xalq, jamiyat kabi leksemalar bilan paradigma hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a'zoning

mohiyati uning paradigmadosh boshqa a'zosining (qad, hola, nizo, sado) mohiyatiga qiyosan olinadi, unga munosabatda bo'ladi. Lisoniy birliklar orasidagi bunday bir-biriga ishora qilinib, eslatib turuvchi belgilar, munosabatlar asoschi etib munosabat hisoblanadi. Ayni chog'da, sintagmatik munosabatlar ham borki, so'z-shaklning asos mohiyati shu munosabatlar jarayonida aniq, namayon bo'ladi.

So'zlovchi nutq jarayonida zarur bo'lgan birlikni o'xshash va farqli belgilari asosida paradigmadan tanlab, sintagmatik imkoniyati doirasida nutqda turli-tuman kombinachiyalar hosil qiladi. Nutqda leksemaning mohiyati hech qachon to'la-to'kis voqealanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatning ham faqat zaruri voqelikka aylanadi. Zero, dialektika qonuniyatlariga muvofiq tarzda mohiyat bir hodisada bus-butun yuzaga chiqmaydi, imkoniyati to'la voqealanmaydi. Nutqiy voqealanish uning bir zarrasidir, xolos.

Xullas, leksema so'zdan boyroq va kengroqdir. Biroq so'z nutqda turli begona-bevosita leksemaga aloqador lisoniy va aloqador bo'lmagan manual hodisalar bilan "boyitilgan", nutqda voqealanish uchun shakllantirilgan deb hisoblanadi. Leksemaning "boyligi", "o'ziniki"dir. So'z esa, aytilganidek, o'zicha, o'z asosidagi leksemaga tegishli bo'lmagan boshqa nolug'aviy omillar-fonetik, morfologik, sintaktik, uslubiy mohiyat zararlarini biriktirib, o'ziga tegishli bo'lmagan hodisalar hisobiga "boyiydi".¹¹

So'z ma'nolarini komponent tahlil qilish, differentsiyasi va integratsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan hodisadir. Mazmunni mayda bo'laklarga – semalarga ajratish, avvalo, ma'noni qismlarga ajratib, uning mohiyatini anglashga qaratilgandir.

So'z ma'nolarini komponent tahlil qilish, uning semantik tuzilishini aniqlashning eng qulay usulidir.

Semantika to'la formallashmasligi va murakkab fenomen ekanligidan kelib chiqsak, semantik tuzilishni tahlil qilishda komponent tahlil qulay ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

¹⁰ Sayfullayeva R. va B. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent.: Universitet, 2006. -B.80.

¹¹ Sayfullayeva R. va B. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: Universitet, 2006. -B. 81.